Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm turlarini transformatsiyalash va diversifikatsiyalash chegaralarini tizimli tahlil asosida aniqlashning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Tadqiqotda turizm sohasi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qaralib, uning resurs salohiyati, infratuzilma holati, bozor talablari, ekologik va ijtimoiy cheklovlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi. Turizm turlarini modernizatsiya qilish imkoniyatini baholash uchun transformatsiya indeksi (TTI), turizm portfelini muvozanatlashtirish uchun diversifikatsiya indeksi (DI) hamda ekologik, ijtimoiy va infratuzilmaviy sig'im modellari taklif etildi. 2020-2024 yillar statistik ma'lumotlari asosida turizm sohasining o'sish dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlari tahlil qilinib, jadal rivojlanish sharoitida chegaralarni ilmiy asosda belgilash zarurati asoslandi.

Kalit so'zlar: turizm turlari, transformatsiya, diversifikatsiya, tizimli tahlil, turistik sig'im, barqaror rivojlanish, integral indeks, raqobatbardoshlik, hududiy ixtisoslashuv, turizm portfeli, infratuzilma, ekologik cheklovlar, investitsiya samaradorligi.

Abstract. This article develops theoretical and methodological foundations for determining the boundaries of transformation and diversification of tourism in Uzbekistan on the basis of systematic analysis. The study looked at the tourism sector as a complex socio-economic system, analyzing its resource potential, infrastructure situation, market demands, environmental and social constraints in a way that is interrelated. Transformation Index (TTI), diversification index (DI) to balance the tourism portfolio, and environmental, social, and infrastructural capacity models were proposed to assess the possibility of modernizing tourism types. Based on the statistical data of 2020-2024, the dynamics of growth and structural changes of the tourism industry were analyzed and the need to establish boundaries on a scientific basis in the conditions of rapid development was justified.

Keywords: tourism types, transformation, diversification, systematic analysis, tourist capacity, sustainable development, integrated index, competitiveness, territorial specialization, tourism portfolio, infrastructure, environmental constraints, investment efficiency.

Аннотация. В данной статье разработаны теоретико-методологические основы определения границ трансформации и диверсификации видов туризма в Узбекистане на основе системного анализа. В исследовании рассматривалась индустрия туризма как сложная социально-экономическая система, анализировалась взаимосвязь ее ресурсного потенциала, состояния инфраструктуры, требований рынка, экологических и социальных ограничений. Были предложены индекс трансформации (TTI) для оценки возможности модернизации туристических видов, индекс диверсификации (DI) для балансировки туристского портфеля, а также модели экологической, социальной и инфраструктурной емкости. На основе статистических данных за 2020-2024 годы была проанализирована динамика роста и структурные изменения туристской отрасли, обоснована необходимость научно обоснованного установления границ в условиях ускоренного развития.

Ключевые слова: виды туризма, трансформация, диверсификация, системный анализ, туристская емкость, устойчивое развитие, интегрированный индекс, конкурентоспособность, территориальная специализация, туристский портфель, инфраструктура, экологические ограничения, эффективность инвестиций.

## KIRISH

Global iqtisodiyotda turizm xizmatlar sohasining eng dinamik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U yalpi ichki mahsulot oʻsishiga hissa qoʻshish, valyuta tushumlarini koʻpaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ragʻbatlantirish, shuningdek, hududlar oʻrtasida iqtisodiy faollikni muvozanatlashtirishda muhim oʻrin tutadi. Turizmning multiplikativ ta’siri tufayli transport, qurilish, savdo, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik va xizmat koʻrsatish sohalari ham parallel ravishda rivojlanadi. Shu jihatdan turizm faqat sayyohlarni qabul qilish bilan cheklanmaydi, balki kompleks ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida namoyon boʻladi.

Oʻzbekiston sharoitida turizm strategik tarmoq sifatida belgilangan boʻlib, mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasida ustuvor yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Respublikaning boy madaniy merosi, me’moriy yodgorliklari, ziyorat maskanlari, togʻli va choʻl hududlari, milliy an’ana va urf-odatlari turizmni koʻp tarmoqli rivojlantirish uchun mustahkam resurs bazasini yaratadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlar xalqaro turistik makonda allaqachon tan olingan markazlar hisoblanadi. Biroq zamonaviy talablar sharoitida faqat tarixiy-madaniy turizmga tayanish yetarli emas.

Jahonda turistik talab strukturasi oʻzgarmoqda. Sayohatchilar individuallashgan xizmatlar, ekologik toza muhit, agroturizm, ekstremal turizm, tibbiy va sogʻlomlashtirish yoʻnalishlariga tobora koʻproq qiziqish bildirmoqda. Raqamli texnologiyalar, onlayn bronlash tizimlari va axborot shaffofligi turizm bozorida raqobatni yanada kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda mamlakat turizm sohasining raqobatbardoshligini saqlab qolish va oshirish uchun uning tarkibiy tuzilmasini qayta koʻrib chiqish talab etiladi.

Hozirgi bosqichda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan transformatsiya jarayonlari turizm sohasiga ham bevosita ta’sir koʻrsatmoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji, iste’molchilar xulq-atvoridagi oʻzgarishlar, barqaror rivojlanish konsepsiyasining ustuvorlashuvi turizmni an’anaviy yondashuvlar asosida boshqarishni samarasiz qilib qoʻymoqda. Turizm endilikda faqat sayyohlarni qabul qilish va xizmat koʻrsatish bilan cheklanmaydi, balki hududiy brending, madaniy diplomatiya, investitsiya muhitini yaxshilash va ijtimoiy kapitalni shakllantirish vositasi sifatida qaralmoqda.

Oʻzbekiston sharoitida mazkur masala yanada dolzarbdir. Chunki mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, xomashyoga bogʻliqlikni kamaytirish va xizmatlar sohasini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Turizm esa tabiiy va madaniy resurslarga tayangan holda qoʻshimcha qiymat yaratish imkonini beruvchi tarmoqdir. Biroq bu imkoniyatdan samarali foydalanish uchun sohaning ichki tuzilmasini qayta koʻrib chiqish talab etiladi.

Amalda kuzatilayotgan holat shundan iboratki, turistik oqim asosan bir necha tarixiy shaharlarda jamlangan. Bu esa infratuzilmaga yuqori bosim yuklaydi, mavsumiylikni kuchaytiradi va daromadlarning hududlar boʻyicha noteng taqsimlanishiga olib keladi. Ayni paytda respublikada togʻli hududlar, choʻl landshaftlari, qishloq xoʻjaligi zonalari, shifobaxsh mineral manbalar va milliy an’analarga asoslangan turizm turlari toʻliq ishga solinmagan. Demak, turizmni diversifikatsiya qilish orqali hududiy iqtisodiy faollikni kengaytirish imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga, turizm sohasidagi notoʻgʻri strategik qarorlar salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, bozor talabini yetarli tahlil qilmasdan amalga oshirilgan loyihalar investitsiya samaradorligining past boʻlishiga sabab boʻladi. Ekologik imkoniyatlar hisobga olinmagan holda rivojlantirilgan hududlarda tabiiy resurslar yemirilishi, bioxilma-xillikning kamayishi va atrof-muhit ifloslanishi kuzatilishi mumkin. Shu bois turizm turlarini transformatsiyalash va diversifikatsiyalash chegaralarini ilmiy asosda belgilash zarurati ortib bormoqda.

Bundan tashqari, turizm sohasi tashqi omillarga yuqori darajada bogʻliq. Pandemiya, xalqaro transport cheklovlari, geosiyosiy oʻzgarishlar yoki global iqtisodiy inqirozlar turistik oqimga bevosita ta’sir koʻrsatadi. Bunday sharoitda bir yoʻnalishga ixtisoslashgan turizm modeli xavfli hisoblanadi. Diversifikatsiya esa xavflarni tarqatish va sohaning barqarorligini ta’minlash imkonini beradi.

Yana bir muhim jihat - ijtimoiy omillardir. Turizm aholi bandligi, daromad manbalari va hayot sifatiga ta’sir koʻrsatadi. Lekin turizmni nazoratsiz rivojlantirish narxlar oshishi, yer resurslaridan foydalanishda muammolar, madaniy qadriyatlarning tijoratlashuvi kabi holatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun transformatsiya va diversifikatsiya chegaralarini belgilashda mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm mahsuloti ham oʻzgarmoqda. Onlayn platformalar orqali individual turlar, kichik guruhli sayohatlar, tajribaga asoslangan turizm keng tarqalmoqda. Bu esa turizm infratuzilmasini, marketing strategiyalarini va kadrlar tayyorlash tizimini qayta koʻrib chiqishni talab etadi. Agar ushbu jarayonlar tizimli tahlilga tayanmasa, sohadagi islohotlar kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, turizm turlarini transformatsiyalash va diversifikatsiyalash chegaralarini aniqlash faqat nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ega vazifadir. U strategik rejalashtirish, investitsiya siyosatini shakllantirish, hududiy dasturlar ishlab chiqish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm turlarini transformatsiyalash va diversifikatsiyalash masalasi xalqaro ilmiy makonda, avvalo, barqaror rivojlanish, manzil (destination) raqobatbardoshligi, sig'im (carrying capacity) va «overtourism», hamda hududiy (place-based) boshqaruv nazariyalari doirasida shakllangan. O'zbekistonda esa tadqiqotlar ko'proq muayyan turizm turlari (ziyorat, ekoturizm, agroturizm) yoki sohaning institutsional-huquqiy asoslarini yoritishga qaratilgan bo'lib, diversifikatsiyaning «chegaralari»ni tizimli mezonlar orqali aniqlash yo'nalishi yetarlicha umumlashgan metodologiyaga aylanmagan.

R.Batler tomonidan ilgari surilgan «Tourism Area Life Cycle» (TALC) modeli turistik hududlar vaqt o'tishi bilan rivojlanish bosqichlarini (o'sish, yetuklik, stagnatsiya va h.k.) bosib o'tishini ta'kidlab, boshqaruv qarorlarini «qaysi bosqichda qanday intervensiya» tamoyili bilan asoslashga xizmat qildi. Tanqidiy nuqtai nazardan, TALC ko'p holatlarda umumiy dinamikani yaxshi tushuntirsa-da, «chegara» tushunchasini (ekologik, ijtimoiy, infratuzilmaviy) anik hisob-kitob qilib bermaydi: model ko'proq konseptual bo'lib, amaliy rejalashtirishda indikatorlar tizimi bilan bog'lanmasa, boshqaruvda subyektivlik saqlanib qoladi.[1] Shu sabab TALC keyingi ishlarida raqamli innovatsiyalar, moslashuvchan boshqaruv (adaptive management) bilan integratsiya qilinishi tendensiyasi kuchaygan.

UNWTOning turizm manzillari uchun barqaror rivojlanish indikatorlari bo'yicha qo'llanmasi turizm ta'sirini o'lchashda iqtisodiy-ijtimoiy-ekologik ko'rsatkichlarni kompleks qo'llashni taklif qiladi va indikatorlarni bosqichma-bosqich ishlab chiqish (participatory approach) zarurligini ko'rsatadi. Kuchli tomoni - indikatorlar tizimi orqali "chegara"ni baholash imkoni kengayadi. Kamchiligi - indikatorlar ro'yxati keng bo'lgani uchun amaliy tadbiqda ma'lumotlar yetishmasligi va turli hududlar kesimida so'zsiz universal «me'yor» berish qiyinligi saqlanadi.[2] Demak, O'zbekiston sharoitida indikatorlarni «tayyor» qabul qilish emas, balki resurs va ma'lumot bazasiga moslashtirib lokallashtirish talab etiladi.

So'nggi yillarda turizmda «overtourism» tushunchasi qayta kun tartibiga chiqib, «sig'im»ni faqat son bilan emas, sifat ko'rsatkichlari (aholi roziligi, servis sifati, ekologik holat) bilan birga baholash kerakligi ta'kidlanmoqda. UNWTOning shahar turizmida o'sishni boshqarish bo'yicha hisobotida ham miqdoriy va sifat indikatorlarini birgalikda qo'llash muhimligi qayd etilgan. [2]

ES PONning metodik qo'llanmalari esa sig'imni hududiy ma'lumotlar asosida hisoblash, monitoring va prognoz qilish instrumentlariga e'tibor qaratadi. Tanqidiy jihat: «carrying capacity» amaliyotida ko'pincha bir indikatorga ortiqcha suyanish (masalan, faqat turistlar soni) yoki aksincha me'yorlarni juda ko'paytirib yuborish (hisoblashni qiyinlashtirish) muammosi bor.[3] Shu bois, amaliyotda «chegara» tushunchasi ko'p mezonli (multi-criteria) va adaptiv monitoringka tayanishi kerak.

Ritchie va Crouch manzil raqobatbardoshligini barqarorlik bilan bog'laydigan konseptual modelni ishlab chiqqan bo'lib, unda «yadro resurslar», «qo'llab-quvvatlovchi omillar», «manzil menedjmenti», «siyosat va rejalashtirish» kabi bloklar o'zaro bog'liq ko'riladi.[4]

Dwyer va Kim esa raqobatbardoshlik determinantlari va indikatorlarini tizimlashtirib, talab (demand) va vaziyat omillarini ham hisobga oluvchi integratsiyalashgan modelni taklif qiladi.[5] Tanqidiy jihat: raqobatbardoshlik modellari diversifikatsiyani asoslashda qo'l kelsa-da, ular ko'pincha «qancha diversifikatsiya qilish kerak?» degan savolga aniq chegara bermaydi; ya'ni «qaysi paytda diversifikatsiya xavfni pasaytiradi, qaysi paytda resursni sochib yuboradi» masalasi ko'proq amaliy indikatorlar, sig'im va investitsiya samaradorligi hisoblari bilan bog'langanda yechim topadi.

OECD hujjatlarida turizm tiklanishi fonida ayrim manzillarda talabni boshqarish, aholi va muhitga ta'sirni pasaytirish, turizmni kuchliroq va diversifikatsiyalashgan qilish zarurati qayd etiladi.[6,7] Ushbu yondashuvning kuchli tomoni - «destination governance», ma'lumotlarga asoslangan qarorlar va moslashuvchan boshqaruvni siyosat darajasiga olib chiqadi. Kamchiligi - OECD tavsiyalari ko'pincha umumiy bo'lib, har bir mamlakatda resurs, institut, ma'lumot sifati turlicha ekani sababli lokal metodologiya talab etiladi.

O'zbekistonda turizmni 2019-2025-yillarda rivojlantirish konsepsiyasida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, sifatni oshirish, infratuzilmani takomillashtirish va investitsiyalarni jalb etish kabi maqsadlar belgilangan.[8] Biroq ushbu hujjatlar strategik maqsadlarni belgilasa-da, amaliyot uchun «diversifikatsiya chegaralari»ni hisoblashning yagona metodik paketini (indikatorlar to'plami, vaznlar, me'yorlar) to'liq shakllantirib bermaydi. Demak, ilmiy tadqiqotlarda aynan shu «metodologik ko'prik»ni qurish zarur.

Ayrim ilmiy tadqiqot ishlarda turizm faoliyatini diversifikatsiya qilishning iqtisodiy xavfsizlik va raqobatbardoshlikka ta'siri ta'kidlanadi, turizm mahsuloti turlarini kengaytirishning umumiy yo'nalishlari ko'rsatiladi.[9] Tanqidiy jihatdan ko'rib chiqadigan bo'lsak: ko'p ishlarda diversifikatsiya «kerak» degan xulosa bilan cheklanib, «qaysi hududda qaysi turizm turi, qay darajagacha?» degan savollarga yetarli empirik asos (ma'lumotlar, sig'im hisoblari, bozor segmentatsiyasi) bilan javob berilmaydi.

Maxsus turizm turlari bo'yicha tadqiqotlarni tahlil qiladigan bo'lsak: segmentlar bor, ammo o'zaro bog'liq tizim sifatida kam. Buni quyidagi holatlariga e'tibor qaratish mumkin[10]:

- ziyorat turizmi bo‘yicha tadqiqotlarda klaster yondashuvi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, ichki turizm bilan bog‘liqlik kabi masalalar ko‘tariladi;

-ekoturizm ishlarida tabiiy hududlar, barqarorlik, infratuzilma va ekologik xavflar haqida fikrlar keltiriladi;

-agroturizm bo‘yicha maqolalar qishloq aholisi daromadini diversifikatsiya qilish, hududiy imkoniyatlar, investitsiya va xizmatlar modeli masalalarini ochadi.

Bu tadqiqotlarning kuchli tomoni - segmentlar kesimida muammo va imkoniyatlar aniq ko‘rsatiladi. Kamchiligi - ular ko‘pincha alohida yo‘nalishlarning ichki tahlili bilan cheklanib, turizm tizimining umumiy arxitekturasida (transport, inson kapitali, mavsumiylik, sig‘im, bozor talabining almashuvchanligi) o‘zaro kompensatsiya va sinergiya masalalarini kam yoritadi. Shu bois «diversifikatsiya chegarasi»ni aniqlash uchun ushbu segment tadqiqotlarini yagona tizimga integratsiya qiluvchi metodologiya talab etiladi.

Ayrim tadqiqotlarda O‘zbekiston turizmining hozirgi holati, diversifikatsiya zarurati, marketing va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish haqida takliflar keltirilgan.[11] Tanqidiy jihatdan o‘rganadigan bo‘lsak: ushbu ishlar strategik fikrlashga yordam bersa-da, ko‘p holatda «chegara»ni hisoblash (masalan, sayyohlar oqimi me’yori, tabiiy hududning qabul qila olish salohiyati, aholi qabul qilish indeksi, infratuzilma yuklanishi) uchun formallashgan indikatorlar va vaznli baholash sxemasi yetishmaydi.

Xorijiy ilmiy makonda transformatsiya va diversifikatsiya masalasi TALC, raqobatbardoshlik modellari, barqarorlik indikatorlari va «overtourism/carrying capacity» konsepsiyalari orqali nazariy jihatdan mustahkamlangan.[12] Biroq hatto xalqaro adabiyotlarda ham «chegara» masalasi ko‘pincha lokal ma’lumot, ko‘p mezonli baholash, va adaptiv monitoring bilan hal qilinadi.

O‘zbekistonda esa normativ hujjatlar diversifikatsiyani strategik maqsad sifatida belgilagan bo‘lsa-da, mahalliy tadqiqotlar asosan segmentlar kesimida tarqoq holda. Demak, mazkur maqolaning vazifasi - xorijiy nazariy asoslarni (indikatorlar, sig‘im, raqobatbardoshlik) mahalliy empirik xususiyatlar bilan bog‘lab, turizm turlarini transformatsiyalash va diversifikatsiyalash chegaralarini aniqlash uchun tizimli, o‘lchovli uslubiyotni asoslashdan iborat.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekistonda turizm turlarini transformatsiyalash va diversifikatsiyalash chegaralarini  tizimli tahlil asosida aniqlash uslubiyotlarini tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo’llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm turlarini transformatsiyalash deganda mavjud yo‘nalishlarni yangi bozor segmentlariga moslashtirish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, innovatsion boshqaruv va marketing usullarini joriy etish tushuniladi. Diversifikatsiya esa yangi turizm mahsulotlarini shakllantirish, hududiy ixtisoslashuvni kengaytirish va xizmatlar assortimentini boyitishni anglatadi. Bu ikki jarayon o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularni ilmiy asoslanmagan holda amalga oshirish resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

Ayni paytda turizm sohasini jadal rivojlantirish ayrim xatarlarni ham keltirib chiqaradi. Haddan tashqari turistik yuklama infratuzilmaga bosim o‘tkazishi, atrof-muhitga zarar yetkazishi, tarixiy yodgorliklarning saqlanish holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olmasdan amalga oshirilgan loyihalar ijtimoiy norozilikka sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Demak, turizmni transformatsiyalash va diversifikatsiya qilish jarayonida muayyan chegaralarni belgilash zarur.

Mazkur chegaralar iqtisodiy samaradorlik, resurs salohiyati, infratuzilma tayyorgarligi, ekologik barqarorlik va ijtimoiy qabul qilinish darajasi kabi ko‘plab omillar bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, turizm sohasini tizimli tahlil asosida o‘rganish, uning ichki va tashqi aloqalarini kompleks baholash, funksional bog‘lanishlarni aniqlash muhim ilmiy vazifadir. Tizimli yondashuv turizmni alohida ob’ekt emas, balki ko‘p omilli, dinamik va ochiq iqtisodiy tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Turizmni transformatsiyalash va diversifikatsiyalash chegaralarini aniqlashda asosiy muammo - «qaysi nuqtagacha rivojlantirish mumkin?» va «qaysi nuqtadan boshlab xavf ortib boradi?» degan savollarga aniq javob berishdir. Bu vazifa tizimli yondashuv, ko‘p mezonli baholash va integral indikatorlar orqali hal etiladi.

I. Transformatsiya chegarasini aniqlash modeli

Transformatsiya deganda mavjud turizm turini sifat jihatdan yangilash, bozor segmentini kengaytirish yoki qo‘shimcha qiymat zanjirini chuqurlashtirish tushuniladi.

1. Transformatsiya indeksi (TTI)

$TTI = \alpha R + \beta I + \gamma D + \mu Q - \delta C$ Bu yerda:

$R$ - resurs salohiyati indeksi; $I$ - infratuzilma tayyorgarlik indeksi

$D$ - bozor talab indeksi; $Q$ - xizmatlar sifati indeksi
$C$ - xarajat va cheklovlar indeksi; $\alpha, \beta, \gamma, \mu, \delta$ - vazn koeffitsientlari
Indekslarni hisoblash:
1.1. Resurs indeksi:

$$R = \frac{R_f}{R_{max}}$$ Bu yerda $R_f$ - mavjud resurslar bahosi, $R_{max}$ - maksimal potensial.

1.2. Infratuzilma indeksi:

$$I = \frac{I_a}{I_{opt}}$$ Bu yerda $I_a$ - amaldagi infratuzilma quvvati, $I_{opt}$ - optimal quvvat.

1.3. Bozor talab indeksi:

$$D = \frac{T_y}{T_{trend}}$$ Bu yerda $T_y$ - joriy yil turistlar soni, $T_{trend}$ - trend bo‘yicha prognoz.

1.4. Sifat indeksi:

$$Q = \frac{\sum_{i=1}^{n} q_i w_i}{\sum w_i}$$ Bu yerda $q_i$-sifat ko‘rsatkichi, $w_i$ - vazni.

1.5. Cheklov indeksi:

$$C = \frac{E + S + F}{3}$$ Bu yerda:

$E$ - ekologik bosim; $S$ - ijtimoiy qarshilik
$F$ - moliyaviy xavf;
Transformatsiya chegarasi sharti:

$$TTI > 1 \Rightarrow \text{Transformatsiya maqbul}$$

$$TTI \le 1 \Rightarrow \text{Chegaraga etiladi}$$

II. Diversifikatsiya chegarasini aniqlash modeli
Diversifikatsiya - yangi turizm turini joriy etish yoki turizm portfelini kengaytirish.
Bu yerda portfel nazariyasi elementlari qo‘llaniladi.
1. Turizm portfeli diversifikatsiya indeksi (DI)

$$DI = 1 - \sum_{i=1}^{n} s_i^2$$ Bu yerda $s_i$ - turizm turining ulushi.

Bu indeks Gerfindal-Hirshman indeksi asosida.
Talqin:
$DI \to 0$ - yuqori ixtisoslashuv; $DI \to 1$ - yuqori diversifikatsiya
2. Diversifikatsiyaning optimal chegarasi

$$DI^* = \frac{\sigma_{max} - \sigma_p}{\sigma_{max}}$$ Bu yerda:

$\sigma_p$ - portfel xavfi; $\sigma_{max}$ - maksimal qabul qilinadigan xavf
Agar:
$\sigma_p > \sigma_{crit}$ yangi turizm turini joriy etish talab qilinadi.
III. Turistik sig‘im (Carrying Capacity) modeli
Turizmni chegarasini aniqlashda eng muhim mezon — sig‘im.
1. Ekologik sig‘im:

$K_e = \dfrac{A \times U}{D \times R_f}$ Bu yerda:

$A$ - hudud maydoni; $U$ - foydalanish intensivligi

$D$ - zarar koeffitsienti; $R_f$ - qayta tiklanish koeffitsienti

2. Ijtimoiy sig‘im:

$K_s = \dfrac{L_a}{L_t}$ Bu yerda:

$L_a$ - aholi qabul qilish darajasi; $L_t$ - turistlar soni

3. Infratuzilma sig‘imi:

$K_i = \dfrac{B}{T}$ Bu yerda:

$B$ - joylashtirish quvvati; $T$ - turistlar soni

Chegara sharti:

$T \le \min(K_e, K_s, K_i)$ Agar $T$ ushbu minimumdan oshib ketsa, diversifikatsiya yoki oqimni qayta taqsimlash talab qilinadi.

IV. Integral barqaror rivojlanish indeksi

$S = \theta_1 E_c + \theta_2 S_c + \theta_3 Ec_c$ Bu yerda:

$E_c$ - iqtisodiy samaradorlik; $S_c$ - ijtimoiy barqarorlik

$Ec_c$ - ekologik barqarorlik

$S \ge 0.7 \Rightarrow \text{Barqarorholat}$ V. Metodologiyaning tahliliy xulosasi

Tizimli yondashuv quyidagilarni ta’minlaydi:

1. Turizm turini rivojlantirishdan oldin uning resurs va infratuzilma bazasini baholash.
2. Bozor talabining real trendlarga mosligini aniqlash.
3. Ekologik va ijtimoiy sig‘imni hisobga olish.
4. Portfel diversifikatsiya darajasini optimal nuqtaga keltirish.
5. Xavflarni minimallashtirish.

Shu tariqa, turizm turlarini transformatsiyalash va diversifikatsiyalash chegaralari:

$TTI > 1 \text{va} T \le K_{min} \text{va} DI \approx DI^*$ shartlari bir vaqtda bajarilganda ilmiy asoslangan deb hisoblanadi.

1-jadval. O‘zbekistonga 2020-2025 yillarda kirib kelgan sayyohlar soni

| Yillar | Sayyoxlar soni | Turizm tashkilotlari soni |
|---|---|---|
| 2020 | 1505,1 | 337 |
| 2021 | 1881,3 | 288 |
| 2022 | 5163,2 | 348 |
| 2023 | 6626,3 | 593 |
| 2024 | 7957,2 | 743 |

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, sayyohlar soni 2020-yilda pandemiya ta’sirida keskin pastladi (1,5 mln). 2022-yildan boshlab tez tiklanish kuzatildi va 2025-yilda 11,7 mln ga yetdi (2024 yilga nisbatan +47%). Bu dinamika O‘zbekistonning vizalar liberallashuvi, infratuzilma islohotlari va marketingni modernizatsiya qilish samarasidir. Turistik firmalar soni 2020-2024-yillarda hajmni sezilarli oshirdi: 337 dan 743 taga. Bu xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarining kengayishi va bozor ishtirokchilari faoliyatini ko‘payishi bilan bog‘liq. Xizmat ko‘rsatilgan shaxslar ham ikki barobardan ziyod oshdi.

2020-2024-yillarda O‘zbekiston turizmi tez tiklandi va o‘sdi. Turistlar sonidagi keskin o‘sish, firmalar faoliyatining kengayishi va xizmat ko‘rsatish hajmining oshishi turizmni iqtisodiy jihatdan ahamiyatli tarmoqqa aylantirdi. Integral indeks ko‘rsatkichlari turizmni transformatsiyalash va diversifikatsiyalash uchun muhim mezonlar tizimini belgilashda foydalanilishi mumkin. Bu usul turizmni rejalashtirishning ilmiy asoslangan mexanizmlaridan biri sifatida xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda turizm sohasini strategik tarmoq sifatida rivojlantirish sharoitida uning tarkibiy tuzilmasini ilmiy asosda qayta ko‘rib chiqish zarurati tobora ortib bormoqda. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, turizm turlarini transformatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonini samarali amalga oshirish uchun, avvalo, uning chegaralarini aniq belgilash talab etiladi. Chegara tushunchasi bu yerda faqat miqdoriy cheklov emas, balki iqtisodiy samaradorlik, resurs imkoniyatlari, ekologik barqarorlik va ijtimoiy qabul qilinish darajasi bilan bog‘liq ko‘p o‘lchamli kategoriya sifatida qaraldi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tizimli yondashuv turizmni murakkab ochiq tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Resurslar, infratuzilma, bozor talablari, investitsiya muhiti, ekologik omillar va ijtimoiy muhit o‘zaro bog‘liq elementlar sifatida ko‘rib chiqildi. Bu esa turizmni rivojlantirish bo‘yicha qarorlarni yakka ko‘rsatkichlar emas, balki kompleks indikatorlar asosida qabul qilish zarurligini asoslab berdi.

Transformatsiya indeksi (TTI) modeli turizm turining modernizatsiya qilishga tayyorlik darajasini baholash imkonini yaratdi. Ushbu indeks resurs salohiyati, infratuzilma holati, bozor talab dinamikasi va xizmat sifati ko‘rsatkichlarini birlashtirib, cheklovlar va xavflarni inobatga olgan holda hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, agar transformatsiya indeksi belgilangan me’yordan past bo‘lsa, turizm turini keskin kengaytirish iqtisodiy jihatdan xavfli bo‘lishi mumkin. Demak, mazkur indeks strategik rejalashtirishda filtr vazifasini bajaradi.

Diversifikatsiya modeli esa turizm portfelining muvozanatli tarkibini shakllantirishga xizmat qiladi. Gerfindal–Hirshman indeksiga asoslangan hisob-kitoblar turizm turlarining ulushini tahlil qilish, ixtisoslashuv darajasini baholash va xavflarni minimallashtirish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, turizm portfelining yuqori darajada ixtisoslashuvi daromadlarning tashqi omillarga bog‘liqligini kuchaytiradi. Shu bois diversifikatsiyaning optimal darajasi barqarorlikni ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Turistik sig‘im (carrying capacity) modeli orqali esa turizm rivojlanishining ekologik, ijtimoiy va infratuzilmaviy chegaralari aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turistlar oqimi sig‘imdan oshib ketganda infratuzilmaga ortiqcha bosim, atrof-muhitga zarar va mahalliy aholi manfaatlariga zid holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun turizmni rivojlantirishda sig‘im ko‘rsatkichlarini muntazam monitoring qilish va oqimni hududlar bo‘yicha muvozanatlashtirish talab etiladi.

2020-2025-yillar tahlili turizm sohasida yuqori tiklanish va o‘sish sur’atlarini ko‘rsatdi. Bu holat turizmni kengaytirish uchun qulay sharoit yaratgan bo‘lsa-da, o‘sish sur’atlarining yuqoriligi chegaralarni aniq belgilash zaruratini yanada kuchaytirdi. Barqarorlik mezonlariga amal qilinmagan holda jadal rivojlanish uzoq muddatli istiqbolda samaradorlikni pasaytirishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u turizmni boshqarish nazariyasida “transformatsiya chegarasi” va “diversifikatsiya chegarasi” tushunchalarini formallashtirdi. Ilmiy jihatdan bu turizmni strategik boshqarishda yangi metodologik yondashuvni taklif etadi. Amaliy ahamiyati esa davlat organlari, hududiy boshqaruv sub’ektlari va xususiy sektor uchun qaror qabul qilish jarayonini aniq indikatorlar asosida tashkil etish imkonini yaratishidan iborat.

Kelgusida ushbu metodologiyani takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq:

-raqamli ma’lumotlar va “big data” asosida turistik oqimlarni prognoz qilish;

-hududiy darajada alohida turizm turlari uchun sig‘im modellarini chuqurlashtirish;

-ekologik va ijtimoiy indikatorlarni statistik hisobot tizimiga integratsiya qilish;

-investitsiya samaradorligi va xavf tahlilini diversifikatsiya modeliga qo‘shish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, turizm turlarini transformatsiyalash va diversifikatsiyalash chegaralarini tizimli tahlil asosida aniqlash O‘zbekiston turizm sohasining barqaror, muvozanatli va raqobatbardosh rivojlanishini ta’minlashning muhim ilmiy va amaliy sharti hisoblanadi. Ilmiy asoslangan yondashuv orqali turizm iqtisodiyotning yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi, hududiy taraqqiyotni rag‘batlantiruvchi va ijtimoiy farovonlikni oshiruvchi tarmog‘iga aylanishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Butler R. W. (1980). The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources. (TALC).
2. UNWTO. (2004). Indicators of Sustainable Development for Tourism Destinations: A Guidebook.

3. World Tourism Organization (UNWTO). (2018). "Overtourism"? Understanding and Managing Urban Tourism Growth beyond Perceptions.
4. ESPON. (2019/2020). Carrying capacity methodology for tourism (methodology handbook / dashboard materials).
5. Ritchie J. R. B., & Crouch G. I. (2003). The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective. CABI.
6. Dwyer L., & Kim C. (2003). Destination Competitiveness: Determinants and Indicators. Current Issues in Tourism.
7. OECD. (2024). OECD Tourism Trends and Policies 2024.
8. OECD. (2021). Building strong and resilient tourism destinations.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. (05.01.2019). PF-5611: "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2019–2025 konsepsiyasi).
10. Isadjanov A. (y.). Tourism Development in Uzbekistan: Current … (ilmiy ish/tahlil materiallari).
11. Rustamova A. R. (2025). Ziyorat turizmi klasterlarini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning o'rni.
12. Amriddinova R. (2022). Qishloq turizmi hamda agroturizm… investitsiyalarning ahamiyati.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

## 2026. № 3


© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №S–5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**